

## Navodir un-Nihoya (II- qism)

Alisher Navoiy

### G‘AZALLAR (DAVOM)

---

305

*Qo‘ymadi shomi xumorim tiyralikdin aqlu xush,  
May quyoshin kup sipehridin chiqar, ey mayfurush.  
Istamon xudxush lekin yo‘qki xush olg‘an xumor,  
May to‘la tutg‘ilki, aylay mastlig‘din tarki xush.  
Jom no‘sho-no‘sh xushtur ul sifatkim, dayr aro  
Boda olib mug‘bacha no‘sh aylabon qildursa no‘sh.  
Un chekib may tut der ersam dayri toqig‘a sado,  
Demakim ham ushbu ma‘nini nido aylar surush.  
Arbadamdin gar toriqting, soqiyo, tut bodakim,  
Bo‘limg‘umdur bo‘limg‘uncha masti loyaqil xamush.  
Muxtasib ta‘zir etar vaqti tanam qildi yalang,  
Dayr piring qulidurmenkim, uldur aybpo‘sh.  
Gar Navoiy bir ayog‘ gohi ichar g‘am daf‘ig‘a,  
Zohid andin o‘zni g‘amgin tutsa iching emdi qo‘sh.*

306

*Shomkim tun pardasidin istadi ixfo quyosh,  
Parda olib yuzdin ul oy ayladi ifsho quyosh.  
Yo‘qki chun kirdi shabiston ichra zulfi shomidin,  
Orazi chun bo‘ldi paydo, bo‘ldi nopaydo quyosh.  
Bazm chun tuzdi jamoli lam‘asidin yo‘qki sham‘,  
Balki zohir ayladi bir sog‘ari sahbo quyosh.  
Subhg‘a tegru yuzidin ravshan erdi bazmu aysh,  
Uylakim el xotirig‘a kelmadi aslo quyosh.  
Lam‘ai ruxsoridin qasrinda har ayvon aro,  
Zarvara qdin shamsalar erdimu bilmon yo quyosh?!  
Mast o‘lub orazni chun maydon aro qildi nihon,  
Sarg‘arib titrab chiqardi pardadin siymo quyosh.  
Ohkim, bir rub‘i maskundin chiqib ko‘p bo‘lg‘usi  
Jilvagar to‘rtunchi toramdin masihoso quyosh.  
Qilma, ey g‘avvos, ko‘p ishq ahlining ashkini man‘  
Kim, senu g‘alton guhar andishasi ushshoqu yosh.  
Bil, Navoiykim, tafovutdur quyoshdin oyg‘acha  
Aylasang nazzora ul oy orazidin to quyosh.*

307

*Xusn bog‘i ichra qadding sarv bo‘lmog‘liqqa tush,  
Har havo qilg‘an ko‘ngul ul qad sari sarv uzra qush.  
Umrlar gum bo‘lg‘an overang yetishmish ollinga,  
Marhabosig‘a ilik sun, dey xud olmasmen quchush.  
Ko‘ksuma g‘am tog‘ida ishqing balo mismorini  
Berkiturda ayladi Farhod metinin cho‘kush.  
La‘li shahdng‘a havo qilg‘anda, ey jonim qushi,*